



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-72-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi Angor tuman bo`limi tomonidan 2022-yil va 2023-yilning o`tgan davridagi faoliyati yuzasidan axboroti to`g`risida

Budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi tuman bo`limi boshlig`i J.Abdurasulovning "Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining tumandagi ijrosi yuzasidan axboroti eshilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi tuman bo`limi boshlig`i J.Abdurasulovning "Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining tumandagi ijrosi yuzasidan axboroti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi tuman bo`limi boshlig`i (J.Abdurasulov)ga:

– pensiya va nafaqa to`lovlarini o`z vaqtida amalga oshirilishini ta`minlash maqsadida, moliyalashtirish ishlari o`z vaqtida amalga oshirilishini qat`iy nazoratga olishni ta`minlash;

– har oylik pensiya va nafaqalar to`lovi uchun zarur bo`lgan talabnomani o`z vaqtida ta`minlash, pensionerlarning ish joylari orqali yetkazib berishni ta`minlash;

– pensiya va nafaqa to`lovlarini o`z vaqtida amalga oshirilishini rivojlantirish dasturlari, ijro jarayoniga to`sqinlik qilayotgan sabablarni chuqur tahlil qilish va ustuvor vazifalarning bajarilishini ta`minlash;

– pensiya va nafaqalar muddatida tayinlanishi hamda to`lovga chiqarilishi yuzasidan har bir bo`limda nazorat o`rnatish, kamchilik va xatoga yo`l qo`ygan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari ko`rish;

– tuman Pensiya jamg‘armasi bo‘limi barcha bo‘g‘inlari xodimlarining hujjatlar bilan ishlashda byurokratik to‘siqlarga keskin barham berish va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish;

– muntazam ravishda fuqarolar ishtirokida sayyor qabullar o‘tkazib borilishini yo‘lga qo‘yib, bu bilan fuqarolarning murojaatlarini joyida hal etish choralarini ko‘rish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-maydagi “Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5102-sonli qarori ijrosini to‘liq va sifatli ta‘minlanishi yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida tegishli choralar ko‘rish;

– pensiya va nafaqa to‘lovlarni manzilli yetkazilishi ustidan bank rahbarlari va xodimlarining mas‘uliyatini oshirish;

– mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi o‘zi harakatlana olmaydigan, 80 yosh va undan katta yoshdagi keksalar, I va II guruh nogironlari, yotib qolgan bemorlar hamda kam ta‘minlangan fuqarolarga to‘lov oyining birinchi yarmida pensiya va nafaqalarni yetkazib berilishi ustidan doimiy nazoratni o‘rnatish;

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **har chorak yakuni** bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov